

Ona Tili Darslarida Kommunikativ Yondashuv Orqali O'quvchilarning Nutq Faoliyatini Shakllantirish

Fayzullayeva Lobar Saydin qizi

O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti

1-bosqich magistranti

@mail:lobarfayzullayeva3@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida kommunikativ yondashuvni qo'llash orqali o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq faoliyatini shakllantirish masalasi yoritiladi. Prezident farmonlari va ilg'or pedagogik qarashlar asosida til kompetensiyasini rivojlantirish zaruriyati asoslab beriladi. Tadqiqotda dars jarayoniga kommunikativ mashqlarni integratsiya qilish usullari tahlil qilingan. O'quvchilar nutqining faolligi, mustaqil fikr bildirish va muloqotga kirishish ko'nikmalari shakllanganligi amaliy tajribalar bilan tasdiqlanadi. Xulosa qismida kommunikativ yondashuvni tizimli joriy etish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit So'zlar: Kommunikativ yondashuv, ona tili darsi, nutq faoliyati, pedagogik innovatsiyalar, boshlang'ich ta'lim.

Abstract

This article explores the development of oral and written speech skills in primary school students through the communicative approach in mother tongue lessons. The necessity of speech competence is justified based on presidential decrees and modern pedagogical theories. The study analyzes methods of integrating communicative tasks into language instruction. Practical lessons confirmed improvements in students' fluency, reasoning, and interaction abilities. The conclusion offers recommendations for systematically applying this approach in the curriculum.

Keywords: Communicative approach, language lesson, speech activities, educational innovations, primary education.

Аннотация


В статье рассматриваются вопросы формирования устной и письменной речевой деятельности у младших школьников на уроках родного языка с применением коммуникативного подхода. Обоснована актуальность развития речевой компетенции на основе указов Президента и современных педагогических идей. Проанализированы методы интеграции коммуникативных заданий в учебный процесс. Практические занятия подтвердили активизацию речевой деятельности и развитие коммуникативных навыков учащихся. В заключении приведены рекомендации по системному внедрению данного подхода в начальное образование.

Ключевые Слова: Коммуникативный подход, урок родного языка, речевая деятельность, педагогические инновации, начальное образование.

Kirish

Mamlakatimizda ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning tafakkuri, nutqiy faolligi va kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-sonli Farmonida "zamonaviy va innovatsion yondashuvlar asosida o'quv jarayonini tashkil etish, shuningdek, o'quvchilarning ijodiy va muloqotga tayyor shaxs sifatida shakllanishini ta'minlash"[O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi " Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz>] vazifalari belgilangan.

Shuningdek, 2021-yil 12-oktabrdagi PQ–5182-sonli Qarorda " boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy qilish orqali o'quvchilarda til kompetensiyalarini shakllantirish"[O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 12-oktyabrdagi " Umumiy o'rta ta'lim tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5182-son



Qarori. <https://lex.uz>] zarurligi ta'kidlangan. Ushbu hujjatlarda ilgari surilgan vazifalar zamonaviy dars jarayonida kommunikativ yondashuvni qo'llash orqali o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq faoliyatini samarali rivojlantirishni dolzarb masalaga aylantiradi.

Pedagog olimlardan H. Yo'ldoshev fikricha, "Kommunikativ yondashuv o'quvchining til o'rganishda faol ishtirokchiga aylanishini, muloqot jarayonining tabiiy shakllarini taqlid qilish orqali nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishni ta'minlaydi" [Yo'ldoshev H. Til o'rgatishda kommunikativ yondashuvning nazariy asoslari.-T.:O'qituvchi. 2021.-B.43].

Shuningdek, tilshunos olim Z. Muminova ta'kidlaydiki, "Boshlang'ich ta'limda kommunikativ yondashuv asosida tuzilgan mashqlar o'quvchilarda nafaqat grammatik bilim, balki hayotiy muloqotga kirishish ko'nikmasini ham shakllantiradi" [Mo'minova Z. Boshlang'ich ta'limda ona tili darslarini tashkil etishda kommunikativ yondashuv asoslari. O'zbek tili va adabiyoti. 2020. №4.-B.110-115].

Shu asosda, mazkur maqolada ona tili darslarida kommunikativ yondashuvni qo'llash orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish usullari tahlil qilinadi hamda amaliy tajriba asosida ularning samaradorligi yoritiladi.

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutq faoliyatini kommunikativ yondashuv asosida shakllantirishning samaradorligini o'rganish maqsadida zamonaviy pedagogik tadqiqot metodlariga tayanildi. Tadqiqot ishlari kompleks yondashuv asosida olib borildi: bunda nazariy tahlil hamda diagnostik metodlar qo'llanildi.

Avvalo, kommunikativ yondashuvga oid xorijiy va mahalliy adabiyotlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'limga doir farmon va qarorlari, shuningdek ilg'or pedagogik tajribalar tahlil qilindi. Nazariy tahlil davomida kommunikativ kompetensiya tushunchasi, uning tarkibiy qismlari va til o'qitishdagi ahamiyati aniqlashtirildi.

Metodologik yondashuvning asosiy tayanchlari sifatida B.F. Lomovning tizimli yondashuv konsepsiyasi, L.S. Vygotskiy va G. Selevko kabi olimlarning muloqotli rivojlantiruvchi ta'lim haqidagi nazariy qarashlariga asoslanildi.


Munozara

Olib borilgan tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf ona tili darslarida kommunikativ yondashuvni qo'llash o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq faoliyatini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega. Ushbu yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarda erkin muloqotga kirishish, fikrni og'zaki va yozma shaklda izchil bayon qilish kabi muhim kompetensiyalarni shakllantirdi.

Mazkur holat psixolog L.S. Vygotskiyning "nutq faoliyati ijtimoiy muhitda shakllanadi" degan tamoyiliga uyg'un holda kechdi. Vygotskiy ta'kidlashicha, "bolaning til rivoji o'zaro muloqot jarayonida shakllanadi va ijtimoiy faoliyat bilan bevosita bog'liq" [Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 1991. – B. 137]. Tadqiqot davomida aynan kommunikativ mashg'ulotlar orqali bolalarning ijtimoiy faolligi oshganligi ko'zga tashlandi.

Pedagog H. Yo'ldoshev o'z tadqiqotlarida kommunikativ yondashuvni "ta'lim jarayonining markazida o'quvchi shaxsini qo'yuvchi va uni til orqali faoliyatga jalb qiluvchi yondashuv" sifatida talqin etadi [Yo'ldoshev H. Til o'qitishda kommunikativ yondashuv. – Toshkent: O'qituvchi, 2021. – B. 43]. Ushbu yondashuv asosida olib borilgan mashg'ulotlar o'quvchilarni faollikka undadi, ularning darsdagi ishtiroki va mustaqil fikr bildirish qobiliyatini kuchaytirdi.

Shuningdek, tilshunos olim Z. Muminova ta'kidlaydi: "Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tuzilgan kommunikativ mashqlar tilni faqat o'rganish emas, balki muloqotda faol qo'llash vositasi sifatida xizmat qiladi" [Muminova Z. O'zbek tili va adabiyoti, 2020, №4, B. 112]. Ushbu fikr tajriba darslarida to'liq tasdiqlandi — o'quvchilar faqat nazariy bilim bilan cheklanmay, hayotiy vaziyatlarda tilni faol qo'llashga intildilar.



Yuqoridagi fikrlar va tajriba natijalari umumlashtirilib, kommunikativ yondashuvning o'quvchilar nutqiy kompetensiyasini shakllantirishdagi roli muhim ekanligi ilmiy asosda isbotlandi. Bu esa ushbu yondashuvni boshlang'ich ta'lim tizimida tizimli joriy etish lozimligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar Tahlili

Boshlang'ich ta'limda kommunikativ yondashuv asosida og'zaki va yozma nutqni shakllantirish masalasi bugungi kunda ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar diqqat markazida turibdi. Bu yondashuv til o'rgatish jarayonini faollashtirish, o'quvchining shaxsiy til kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Avvalo, psixolog L.S. Vygotskiy o'zining "Pedagogik psixologiya" (1991) asarida til rivojini ijtimoiy muloqot bilan uzviy bog'liq holda talqin etadi. Unga ko'ra, "og'zaki va yozma nutq o'zlashtirilishi bolaning faoliyatga faol jalb qilinishi orqali amalga oshadi" [Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya.- T.: O'qituvchi nashriyoti. 1991. -B. 137]. Bu qarash hozirgi kommunikativ yondashuv asoslarini belgilovchi nazariy tayanch hisoblanadi.

H. Yo'ldoshevning "Til o'qitishda kommunikativ yondashuv" (2021) nomli ilmiy risolasida bu yondashuvning o'quvchi shaxsini shakllantirishdagi o'rni chuqur yoritilgan. Muallif til o'rganish jarayonini faqat grammatik bilim bilan cheklab qo'yish emas, balki muloqotda faol ishtirok etish orqali o'zlashtirish zarurligini ta'kidlaydi. U o'quvchi faolligini oshirishda suhbatli mashqlar, savol-javoblar, dialogli topshiriqlar samaradorligini asoslaydi [Yo'ldoshev H. Til o'qitishda kommunikativ yondashuv. T.: O'qituvchi nashriyoti. 2021. B. 43].

Z. Muminova esa "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalida chop etilgan maqolasida boshlang'ich ta'lim uchun kommunikativ mashqlarni ishlab chiqish metodikasiga e'tibor qaratadi. Uning fikricha, "boshlang'ich sinf o'quvchilari hayotiy voqealarga asoslangan suhbatlar orqali o'z fikrini aniq bayon qilishga o'rganadi" [Muminova Z. Boshlang'ich ta'limda kommunikativ mashqlarning roli. O'zbek tili va adabiyoti jurnali. 2020. №4.- B. 112]. Bu fikr ham maqola mavzusining dolzarbligini ilmiy asoslaydi.

Shuningdek, D. Karimovanning "Boshlang'ich ta'limda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish yo'llari" nomli maqolasida dars jarayonida kommunikativ yondashuvni tatbiq qilish metodlari amaliy misollar bilan berilgan. Muallif yozma nutqni rivojlantirishda asosiy urg'u berilishi kerak bo'lgan omillar sifatida: kontekst asosida yozish, o'z fikrini dalillash va matnni qayta ifodalash kabi ko'nikmalarni ko'rsatadi [Karimova D. Boshlang'ich ta'limda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish yo'llari. Boshlang'ich ta'lim ilmiy-amaliy jurnali. 2022. №2. -B. 47].

Rasulova M.ning fikricha: "Til kompetensiyasini rivojlantirishda kommunikativ yondashuv o'quvchi shaxsini o'stirishning samarali vositasi hisoblanadi" [Rasulova M.M. Zamonaviy ta'lim muammolari. 2019. №3.-B.19].

Shodiyeva G. ning fikricha: "Kommunikativ yondashuv asosidagi darslarda o'quvchilar faqat eshituvchi emas, balki faol suhbatdoshga aylanadi, bu esa nutqiy rivojlanishga olib keladi" [Shodiyeva G. Boshlang'ich ta'lim va metodika. 2022. №3. -B.43].


Davronova N. shunday ta'kidlagan: "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida og'zaki nutq faolligini oshirishda kommunikativ metodlar darsning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi" [Davronova N. Ta'lim va innovatsiya. 2021. №1.-B.56].

Xulosa

O'tkazilgan tadqiqot va tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf ona tili darslarida kommunikativ yondashuvni qo'llash o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega. Bu yondashuv orqali o'quvchilarda: mustaqil fikr bildirish, savollarga erkin javob qaytarish, matn ustida tahliliy ish olib borish, suhbatga kirisha olish, yozma fikrni mantiqan bayon eta olish kabi muhim kompetensiyalar shakllanadi.

Tajribalar shuni tasdiqladiki, muloqotga asoslangan topshiriqlar, guruhli va juftlikda ishlash, rolli o'yinlar hamda hayotiy vaziyatlar asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarda til faolligini oshiradi, ularda tilni amaliy faoliyat vositasi sifatida o'zlashtirishga yordam beradi.

Adabiyotlar Ro'yxati



1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi " Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 12-oktyabrdagi " Umumiy o'rta ta'lim tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5182-son Qarori. <https://lex.uz>
3. Yo'ldoshev H. Til o'rgatishda kommunikativ yondashuvning nazariy asoslari.- T.:O'qituvchi. 2021.-B.43
4. Mo'minova Z. Boshlang'ich ta'limda ona tili darslarini tashkil etishda kommunikativ yondashuv asoslari. O'zbek tili va adabiyoti. 2020. №4.-B.110-115.
5. Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 1991. – B. 137
6. Karimova D. Boshlang'ich ta'limda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish yo'llari. Boshlang'ich ta'lim ilmiy-amaliy jurnali. 2022. №2. -B. 47
7. Rasulova M.M. Zamonaviy ta'lim muammolari. 2019. №3.-B.19
8. Shodiyeva G. Boshlang'ich ta'lim va metodika. 2022. №3. –B.43.
9. Muminova Z. Boshlang'ich ta'limda kommunikativ mashqlarning roli. O'zbek tili va adabiyoti jurnali. 2020. №4.- B. 112
10. Davronova N. Ta'lim va innovatsiya. 2021. №1.-B.56].